

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘maaxborot-tahliliy
ishlar bo‘limi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘maaxborot-tahliliy ishlar bo‘limi (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb yuritiladi) Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

2. Bo‘lim faoliyati davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi statistik axborotlarni chop etish va tarqatish tizimining samarali ishlashini ta‘minlashga qaratilgan.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi to‘g‘risida”gi Nizomga, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarma boshlig‘i rahbarligida va Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘maaxborot-tahliliy ishlar bo‘limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat statistika boshqarmasining tarmoq bo‘limlari va tumanlar, shahar statistika bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) Viloyat statistika boshqarmasi bo‘limlari hamda tumanlar, shahar statistika bo‘limlari bilan statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida:

Statistika ishlari dasturiga ko‘ra statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, qayta ishlash va umumlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish;

hududlar bo'yicha birlamchi statistika ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash tizimini takomillashtirishni ta'minlash yuzasidan viloyat statistika boshqarmasi bo'limlari hamda tumanlar, shahar statistika bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil etish bo'yicha boshqarma hamda tumanlar va shahar statistika bo'limlari faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

statistik ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sifatni boshqarish tizimini tuzish va rivojlantirish;

viloyat statistika boshqarmasi bo'limlari hamda hududiy statistika organlari bilan statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

statistika ko'rsatkichlarining ishonchliligi, haqqoniyligi, tezkorligi va tizimlilikini ta'minlash bo'yicha ishlar monitoringini yuritish.

b) statistika ko'rsatkichlarining ishonchliligi, haqqoniyligi, tezkorligi va tizimlilikini ta'minlash bo'yicha ishlar monitoringini yuritish sohasida:

statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, haqqoniyligi, yaxlitligi va tizimlilikini yuzasidan monitoring yuritish;

hududiy statistika organlari tomonidan amaldagi qonunchilik asosida barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonunchilik talablarini bajarilishini nazorat qilishni amalga oshirilishi yuzasidan monitoring yuritish;

viloyat statistika boshqarmasi tarmoq bo'limlari tomonidan Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarning bajarilishini ta'minlanishi yuzasidan nazoratni tashkil etish;

tumanlar va shahar statistika bo'limlari tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda Statistika agentligi, viloyat statistika boshqarmasining qaror va topshiriqlariga rioya etilishini nazorat qilish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibiga rioya etilishi yuzasidan ishlarning tashkil etilishi, statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlari asosida qo'llaniladigan choralar bo'yicha ishlarning yuritilishi yuzasidan faoliyatni tashkil etish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

statistika ishlarini tashkil etish masalalari bo'yicha hududiy statistika organlariga zamonaviy darajadagi tizimli yordam ko'rsatish;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi tumanlar, shahar statistika bo'limlaridan olingan birlamchi statistika axborotlarini va ma'lumotlar bazasi sifatini tizimli nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qilish.

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

bo'limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini samarali amalga oshirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

statistika ko'rsatkichlarining ishonchliligi, haqqoniyligi, tezkorligi va tizimlilikini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi;

statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining bajarilishini nazorat qiladi va uning natijalari bo'yicha boshqarma rahbariyatiga har oy ma'lumot taqdim etadi;

boshqarma bo'limlari va tumanlar, shahar statistika bo'limlarida me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan o'rganishlar o'tkazadi;

hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligi, to'liqligi va sifatlilikini ta'minlash bo'yicha hududiy statistika organlari faoliyatini nazorat qiladi;

tumanlar va shahar statistika bo'limlari tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan qo'llanilayotgan choralar yuzasidan nazorat olib boradi, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtiradi, har oy natijalari bo'yicha qo'llanilgan choralar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtiradi va belgilangan tartibda taqdim etib boradi;

viloyat bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi statistik axborotlar va to'plamlar maketini, yig'ma statistik va iqtisodiy-tahliliy axborotlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlaydi;

boshqarma tarmoq bo'limlari, tumanlar va shahar statistika bo'limlari bilan birgalikda statistik axborotlar va to'plamlarni tarqatish ishlarini amalga oshiradi;

statistika ishlari dasturiga muvofiq, boshqarma rahbariyatining topshirig'iga va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda statistik axborotlar va to'plamlar bilan ta'minlaydi;

viloyat bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha jadvallar maketini tayyorlaydi;

bo'limlar va hududiy statistika organlari tomonidan yig'ma-axborot ma'lumotlarini belgilangan maketlar asosida shakllantirish ishlarini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

bo'linga taqdim etilgan yig'ma statistik va iqtisodiy-tahliliy ko'rsatkichlar asosida oylik, choraklik va yillik tezkor ma'lumotlarni umumlashtiradi, shakllantiradi va chiqaradi;

statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida belgilangan va boshqarma rahbariyatining topshirig'iga asosan statistik axborotlar va to'plamlarni shakllantiradi;

statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq, boshqarma rahbariyatining topshirig'iga va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan, davlat hokimiyatiga boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda statistik axborotlar va to'plamlar bilan ta'minlaydi;

tumanlar, shahar statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga ko'rib chiqishi uchun tahliliy, ma'lumot uchun va boshqa materiallarni (viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i va uning o'rinbosarlari topshiriqlarining loyihalari) tayyorlaydi.

Bo'linga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

III. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

statistika sohasida faoliyatni tashkil etish masalalari bo'yicha viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

viloyat statistika boshqarmasining bo'limlaridan, shuningdek hududiy statistika organlaridan statistika ishlari dasturiga asosan statistika ishlarining haqqoniyligini va taqdim etish muddatlariga rioya etilishini talab qilish;

Boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha bo'limlar bilan instruktiv kengashlar o'tkazish;

viloyat statistika boshqarmasining bo'limlaridan, tumanlar va shahar statistika bo'limlaridan belgilangan tartibda bo'lim vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

yig‘maaxborot-tahliliy ma‘lumotlar, statistik to‘plamlar tarkibi, tuzilishi va dizayni bo‘yichaboshqarma boshlig‘iga takliflar berish;

Bo‘limga taqdim etilayotgan ma‘lumotlarning haqqoniyligi va o‘z vaqtida bajarilishini talab qilish;

yuridik va jismoniy shaxslarning Bo‘lim faoliyatiga oid bo‘lgan masalalar bo‘yicha xatlari va so‘rovlarini ko‘rib chiqish va ularga javob tayyorlash;

statistika hisoboti shakllarining to‘liqligini ta‘minlash, ularni yig‘ish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bo‘limvakolatigakiruvchiishlarnitashkillashtirish va bajarilishini nazorat qilish.

9. Bo‘lim:

o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarning zarur darajada va samarali bajarilishi uchun;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari va boshqa hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentihuzuridagi statistika agentligi rahbariyati topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, hisobot va ijro intizomini ta‘minlanishi uchun;

Bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat, tijorat sirlariga rioya qilinishi va saqlanishini ta‘minlash uchun javobgar bo‘ladi.

IV. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

10. Bo‘lim faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, ushbu Nizom, Statistika agentligi buyruqlariva qarorlari, viloyat statistika boshqarmasi buyruqlari shuningdek, statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, viloyat statistika boshqarmasiningchora-tadbirlari, Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘maaxborot-tahililiy ishlar bo‘limining yillikish rejasi, xodimlarning lavozim vazifalari asosida tashkil etiladi;

Bo‘lim xodimlarining lavozim vazifalari boshqarma boshlig‘i bilan kelishiladi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

11. Bo‘limga viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

12. Yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha Bo‘lim faoliyati samaradorligining doimiy monitoringi, statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturini va boshqarma rahbariyati topshiriqlarini elektron hujjat aylanishi tizimida

o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, shuningdek Bo'lim tomonidan bajarilgan rejadagi va rejadan tashqari ishlar to'g'risida oylik hisobot tuzish orqali tashkil etiladi.

Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim xodimlari tomonidan yuklatilgan vazifalar, majburiyatlarni zarur darajada bajarilishini ta'minlaydi, ijro va mehnat intizomi holati uchun javob beradi;

Bo'lim ishining samaradorligini oshirish va uni kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

xodimlar tomonidan bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat va tijorat sirlariga rioya qilinishini va saqlanishini ta'minlaydi.

13. Bo'lim boshlig'i quyidagi huquqlarga ega:

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

xodimlarni boshqa lavozimlarga ko'rsatish, o'tkazish va rag'batlantirish, zarur hollarda jazolash chorasini qo'llash to'g'risida boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

Bo'lim xodimlarining lavozim maoshlariga shaxsiy ustamalar belgilash, shuningdek avvalgi o'rnatilgan ustamalarni kamaytirish yoki bekor qilish bo'yicha boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

Bo'lim ishini tashkil etishni, usuli va uslubini yaxshilash, hisobot, ijrovamehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxonalar va tashkilotlarda viloyat statistika boshqarmasi nomidan qatnashish.